



QISHLOQ XO'JALIGIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOXOTLAR.

Mirjalol Tursunaliyev Mashrabjon o'gli

*Namangan davlat universiteti Biotexnologiya fakulteti Mevachilik va uzumchilik
yo'nalishi 1 bosqich talabasi.*

REFORMS IN AGRICULTURE.

Mirjalol Tursunaliyev, son of Mashrabjan

*is a first-year student of Namangan State University, Faculty of Biotechnology,
Department of Fruit and Viticulture.*

РЕФОРМЫ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ.

Мирджалал Турсуналиев, сын Машрабджана

*студент первого курса Наманганского государственного университета,
факультет биотехнологии, кафедра фруктов и виноградарства.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qishloq xo'jaligi sohasi va bu sohada olib borilayotgan islohotlar hamda qishloq xo'jaligi sohasiga Prezidentimizning e'tiborlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, zamonaviy texnologiyalar, yangi islohotlar, dehqonchilik, g'alla yetishtirish, klasterlar.

Annotation: This article provides information about the agricultural sector and the reforms being carried out in this sector, as well as the President's attention to the agricultural sector.

Key words: agriculture, modern technologies, new reforms, agriculture, grain production, clusters.

Аннотация: В данной статье представлена информация об аграрном секторе и проводимых в этом секторе реформах, а также о внимании Президента к аграрному сектору.

Ключевые слова: сельское хозяйство, современные технологии, новые реформы, сельское хозяйство, производство зерна, кластеры.

Kirish:

O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga oid modernizatsiya jarayonlari davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan strategik rejalarda iqtisodiyotning muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu strategik rejalar aholining turmush farovonligini ta'minlovchi yangi bosqichdir. Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda yangi texnologiyalarning ham o'z o'rnini bor. Mamlakatda qishloq xo'jaligini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlar shiddat bilan ilgarilamoqda.



Umuman, davlat tomonidan so'nggi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish va uni bozor talablariga moslashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, 2021 yilda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid bir qancha normativ hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida»gi farmoni hamda «O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Yuqoridagi farmon bilan «2021-2025 yillarda qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini ustuvor rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlandi.

Adabiyotlar tahlili:

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi doirasida oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish hamda shakllangan dehqonchilik ko'nikmalari, tuproq-iqlim sharoiti, suv ta'minotidan kelib chiqib, respublikaning barcha tumanlari hududlari muayyan turdagi mahsulotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich ixtisoslashtirilishi belgilandi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda asosiy e'tibor uning hosildorligi, eksportbopligi, yaxlit maydonlarda yetishtirilishiga hamda kooperatsiya va klaster tizimi asosida mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash va ichki va tashqi bozorlarga sotish tizimi yo'lga qo'yilishini o'z ichiga oladi. Jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari eksportini oshirish uchun har bir viloyatda kamida bitta tuman hududini organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish belgilandi. Shu bilan birga, 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga sertifikatlangan qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari va ko'chatlarini xarid qilish uchun ajratiladigan tijorat banklarining kreditlari bo'yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ma'lum talablar asosida qoplab beriladigan bo'ldi. Yana bir muhim jihat, «ArcGIS» dasturi yordamida qishloq xo'jaligi yerlarining asosiy va takroriy ekin turlari, hosildorlik darajasidan kelib chiqib, interfaol xaritada kuzatish imkoniyatiga ega yagona axborot bazasini shakllantirish hamda uning milliy geo-axborot tizimi bilan integratsiya qilinishi ta'minlanadigan bo'ldi. Bu esa, qishloq xo'jaligi yerlaridan unumli foydalanishga hamda hosildorligi past yerlarning unumdorligini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Kelgusi besh yilda qishloq xo'jaligida hosildorlikni kamida 2 barobarga ko'paytirish, xom ashyoni qayta ishlash, soha eksportini 7 mlrd. dollarga yetkazish, aholi bandligi va daromadlarini yanada oshirish maqsad qilingan.

Muhokama:

Tabiiyki, bunda klasterlarning o'ziga xos o'rni bor, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu tizim qisqa vaqt ichida katta evrilishlarga zamin yaratdi. Masalan, birgina paxtachilikda tolani qayta ishlash 2,5 barobarga oshib, 100 foizga yetkazildi. Shuningdek, ip-kalava ishlab chiqarish 2 barobarga, tayyor mahsulot – 3 barobarga



ortdi, eksport 3 mlrd. dollarga yetdi. Paxta xom ashyosidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab olgan 2 mlrd. dollarlik 125 ta yangi korxonada hamda 150 mingta doimiy ish o'rni tashkil qilindi. Klasterlar tomonidan 5 mingdan ortiq zamonaviy rusumdagi texnikalar olib kelindi, 126 ming gektar maydonda suv tejash texnologiyalari joriy qilindi. Endi bundan buyon, klasterlarga kreditlar 24 oy muddatga ajratilib, uning imtiyozli davri amaldagi 11 oydan 18 oygacha uzaytiriladi. Klaster olgan kreditini, xom ashyoni eng kamida ip-kalava va matoga aylantirgandan keyin qaytaradigan bo'ldi. Bu tizimni joriy etishga byudjetdan 10 trln. so'm yo'naltirish belgilandi. Shu maqsadda Qishloq xo'jaligi jamg'armasiga qo'shimcha 100 mln. dollar ajratilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, klasterlar tomonidan ip-kalavani qayta ishlash darajasini kelgusi ikki yilda hozirgi 50 foizdan 70 foizga yetkazish mo'ljallangan. Jumladan, matoni bo'yash va aralash mato ishlab chiqaradigan uskunalarning xaridi uchun korxonada quvvatiga qarab, davlat hisobidan moliyaviy grantlar beriladi. Bunday loyihalarni kreditlash uchun yana 150 mln. dollar mablag' ajratiladi. 2022 yildan ip-kalavani qayta ishlaydigan klasterlarga kredit olishda paxta xomashyosi va tolasini garovga qo'yish amaliyoti joriy etilishi maqsad qilingan.

Natija:

Ekspirimental metod:

Ma'lumki, g'alla yetishtirish va sotishda bozor munosabatlariga o'tilmoqda. 2022 yildan g'allachilik klasterlari va fermerlarga bug'doyni bozor narxida to'liq erkin sotish huquqi berilishi maqsad qilingan. Bunda, klaster va fermer xo'jaliklari 3 yil davomida har gektardan 2,5 tonna g'allani birja savdolariga chiqarishi talab etiladi. Qolgan hosilni esa, to'g'ridan-to'g'ri sotish huquqi beriladi. Shuningdek, 2022 yildan meva-sabzavot hosilini iqlim xavfidan sug'urtalash bo'yicha sug'urta kompaniyalari o'rtasida tanlov o'tkaziladi. Eksport shartnomasi bo'lgan klaster va fermerlarga sug'urta mukofotining 50 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi.[4] Ta'kidlash joizki, 200 ming gektar past hosilli paxta va g'alla maydonini qisqartirish ham rejalashtirilgan. Bu maydonlar aholiga tanlov asosida, uzoq muddatli ijaraga beriladi. Kelgusi yillarda qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish natijasida davlat aralashuviga to'liq barham beriladi. Xususan, dehqon va fermerlar daromadlari kamida 2 barobar oshiriladi, qishloq xo'jaligida o'sish sur'atlari 5 foizga yetkaziladi hamda dehqonlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalar ajratiladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etiladi.[1] 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish tizimi yaratiladi. Shuningdek, Yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish amaliyoti yo'lga qo'yiladi hamda Eksportbop mahsulotlar yetishtirish va meva-sabzavotchilikni rivojlantirish asnosida, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyati yana 1 mlrd. doll. ga oshiriladi. Bundan tashqari, 2022 yilda Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti tashkil etiladi hamda ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan



agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtiriladi. Shuningdek, agrosanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmi 1,5 baravar oshiriladi hamda aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Ekspirimental metod:

Shu bilan birgalikda, chorva uchun ozuqabop ekinlar maydoni 2 barobardan ziyod oshiriladi. Bunda 11 mln. gektar yaylovlar qayta tiklanishi hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5-2 barobar ko'paytirilishi rejalashtirilgan.[2]

Bundan tashqari, Prezidentimiz ko'rsatmasiga muvofiq, loyihalarni ishlab chiqishda fanni rivojlantirishga, ilg'or texnologiyalarni joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Xususan, jalb qilinayotgan mablag'ning 87 million dollari qishloq xo'jaligi sohasidagi 10 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi, 4 ta ixtisoslashgan markaz faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini yaxshilashga ajratiladi.[5] Shuningdek, 70 million dollar ko'chatlar yetkazib berish, fitosanitariya, geoaxborot va sertifikatlash xizmatlarini ko'rsatadigan agroxizmat markazlarini tashkil etilishi, bundan tashqari, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish uchun berilayotgan 10 million dollar hisobiga yerlarning hosildorligi, soliq, transport-logistika va mahsulotlar bozorlari haqida ham ma'lumotlar olish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, qishloqda bozor prinsiplari va munosabatlarini keng joriy etish, qishloq xo'jaligi korxonalarini bozor shart-sharoitlari va talablariga jadal moslashtirish albatta tadbirkorlik, dehqonchilik va savdo-sotiq rivoji uchun munosib xizmat qiladi. Yerni xususiylashtirish zamon talabi bo'lgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazishning eng avvalgi va eng muhim bosqichidir. Qishloq xo'jaligida zamonaviy ishlab chiqarish - yuqori hosildorlik va yuqori sifatli mahsulotlar yetishtirish bu sohada bozor munosabatlarini tiklamasdan amalga oshirish imkonsiz. [3] Bozor munosabatlari esa, qachonki ishlab chiqaruvchi, ya'ni dehqon o'z mehnat faoliyatida erkin va u qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalarining eng muhimi bo'lgan Yerning va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy mulkdori bo'lsagina rivojlanadi. Prezidentimiz ajratilayotgan har bir dollarni uch dollarga aylantirish, imtiyozli kreditlarni qaytarish bo'yicha aniq hisob-kitob asosida ishlash zarurligini ta'kidladi. Darhaqiqat, bugungi kunda har bir tadbirkor sarflagan dastmoyasidan mo'may daromad olishi, biznesini rivojlantirishi uchun qancha mashaqqat va qiyinchiliklarga qaramay harakat va izlanishdan to'xtamasligi lozim.

Ekspirimental metod;

Intensiv bog' maydonlarini kengaytirishga 65 million dollar yo'naltirish belgilangan. Xususan, buning hisobidan Toshkent viloyatida 500 gektar, Andijon, Buxoro, Namangan, Farg'ona va Samarqandda 300 gektardan, Jizzaxda 250 gektar, Qashqadaryo hamda Surxondaryoda 200 gektardan, Qoraqalpog'istonda 100 gektar maydonda yangi usuldagi intensiv bog'lar yaratilishi rejalashtirilgan. Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy



ahvolini mustahkamlash, yerlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish, shu jumladan meva-sabzavot va yem-xashak ekinlarini ko'paytirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmini hamda agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi. Mulkiy munosabatlar yangicha shakllarga muhitda o'zining xususiy yerida hosilini kutayotgan o'zbek dehqoniga, xususiy korxonasida buyurtmalarga mahsulotini o'z vaqtida ishlab chiqarib berishga shoshilayotgan o'zbek tadbirkoriga, chet elda sotishga molini xususiy omborlarida to'plab, shaylayotgan o'zbek tojiriga "O'z Yeringni, o'z mulkingni, o'z uyingni o'zing asra!" deb xitob qilinishi juda mos va o'rinli bo'ladi.

Xulosa:

Qishloq xo'jaligining rivojlanishi bevosita aholi farovonligini ta'minlashda muhim omillardan hisoblanadi. Mazkur soha mamlakat iqtisodiyotining yetakchi «drayveri» ekanligi bois, sohada ko'plab modernizatsiya ishlarini jadallashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan bir sanaladi. Shu bois, so'nggi yillarda mamlakatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid strategiyalar ishlab chiqildi va amalga tatbiq etib borilmoqda. Bu esa, xalq farovonligini ta'minlash yo'lidagi muhim jarayondir. Zero, mazkur soha rivojida olib borilayotgan sa'y-harakatlar mamlakatda dehqon va fermerlar daromadining oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda unumdorlikning o'sishiga xizmat qiladi, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Abdug'aniyev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent-2019[1]
2. M.Shoumarova Qishloq xo'jaligi texnikalari tuzilishi. Toshkent-2017[2]
3. N.Nurmatov. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent-2014[3]
4. www.lex.uz[4]
5. www.ziyonet.uz [5]